

**IPAKCHILIK ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.36/30.01.2020.Qx.103.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI
IPAKCHILIK ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

SOXIBOVA NIGORA SADRITDINOVNA

**INTENSIV TUTZORLARNI TASHKIL ETISHNING TURLI OPTIMAL
SXEMALARINI BARG HOSILDORLIGIGA VA IPAK QURTI
MAHSULDORLIGIGA TA'SIRI**

06.02.04 – Ipakchilik

**QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
сельскохозяйственным наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on agricultural
sciences**

Soxibova Nigora Sadritdinovna

Intensiv tuzorlarni tashkil etishning turli optimal sxemalarini barg hosildorligiga va ipak qurti mahsuldorligiga ta'siri.....3

Сохибова Нигора Садритдиновна

Влияние различных оптимальных схем интенсивной плантации шелковицы на урожайность листьев и продуктивность тутового шелкопряда.....23

Sokhibova Nigora Sadritdinovna

The effect of various optimal schemes for establishing intensive mulberry plantations on leaf productivity and silkworm performance.....41

E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works45

**IPAKCHILIK ILMiy-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMiy
DARAJALAR BERUVCHI PhD.36/30.01.2020.Qx.103.01
RAQAMLI ILMiy KENGASH**

IPAKChILIK ILMiy-TADQIQOT INSTITUTI

SOXIBOVA NIGORA SADRITDINOVNA

**INTENSIV TUTZORLARNI TASHKIL ETISHNING TURLI OPTIMAL
SXEMALARINI BARG HOSILDORLIGIGA VA IPAK QURTI
MAHSULDORLIGIGA TA'SIRI**

06.02.04 – Ipakchilik

**QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Qx549 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Ipakchilik ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.silkscience.uz) hamda «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan

Ilmiy rahbar:

Valiyev Sayfiddin Tojiddinovich
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar:

Daniyarov Umirzak Tuxtamuradovich
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Sodiqov Davron Sodiq o'g'li
qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori,
(PhD)

Yetakchi tashkilot:

Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Ipakchilik ilmiy tadqiqot instituti huzuridagi falsafa doktori (PhD) ilmiy darajalar beruvchi PhD.36/30.01.2020.Qx.103.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil 17 05 soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil 100055, Toshkent sh., Shayxontohur tumani, Ipakchi ko'chasi, 1-uy. Tel.: (+99871) 2498356; faks: (+99871) 2498213; e-mail: uzniish@mail.ru Ipakchilik ilmiy tadqiqot instituti ma'muriy binosi, 3-qavat, anjumanlar zali).

Dissertatsiya bilan Ipakchilik ilmiy tadqiqot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 06 -raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil 100055, Toshkent sh., Shayxontohur tumani, Ipakchi ko'chasi, 1-uy. IITI ARM, 3-qavat. Tel.: (99871) 249-82-13.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil 04 29 kuni tarqatildi.

2025 yil 7 04 1 -raqamli reestr bayonnomasi).



B.U.Nastrillayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, q.x.f.d., professor

S.X.Xudjamatov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, q.x.f.d., katta ilmiy xodim

D.A.Ismatullayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, q.x.f.d., katta ilmiy xodim

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyodagi pillachilik sohasi bilan shug'ullanayotgan davlatlarda hozirgi kunda yerdan samarali foydalanib, o'rma va intensiv shakldagi tutzorlardan to'yimli, sifatli va yuqori barg hosili yetishtirish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Bunga bevosita o'rma va intensiv sxemadagi optimal tutzorlarni tashkil etish hamda mahsuldor tut navlaridan foydalanish orqali erishish mumkin. Pillachilik sohasi rivojlangan Xitoy, Hindiston, Yaponiya va Vetnam kabi davlatlardagi mavjud tutzorlarning 80-85 foizi o'rma va intensiv shaklda navdor tut ko'chatlaridan tashkil etilgan. Ushbu mamlakatlar yerlardan unumli foydalanib, intensiv va o'rma tutzorlarni tashkil etishni rivojlantirish orqali har yil yuqori barg va mo'l pilla hosil olib kelmoqdalar.

Bugungi kunda tutning manzarali, mevali va ipak qurti uchun bargidan ozuqa sifatida foydalaniladigan nav va duragaylari 80 dan ortiq mamlakatlarda yetishtiriladi. Halqaro ipakchilik komissiyasi (INSERCO)¹ ning ma'lumotiga ko'ra, XXR, Hindiston va Vetnam kabi ipakchilik ilm-fani rivojlangan mamlakatlarda, turli iqlim sharoitlarga moslashgan va ipak qurtlari boqish uchun mos tutning *Morus alba. L*, *Morus multicaulis R*, *Morus bombycis K*, *Morus Kagayamae* turlarining issiq va sovuqqa chidamli, to'yimli, serhosil nav va duragaylaridan intensiv usulda (90 sm + 150 sm) × 60 sm va 3 m (120 sm + 90 sm + 90 sm) × (120 sm + 90 sm + 90 sm) kabi sxemada tutzorlar tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda». Bunday sxemadagi tutzorlar tashkil etishda yuqorida qayd etilgan davlatlarning olimlari tomonidan mahsuldor tut navlaridan baland tanali, buta, o'rma va intensiv sxemadagi tutzorlarni tashkil etish, bargni oziqaviyligi, to'yimliliigi hamda ipak qurtini rivojlanishga, pilla hosiliga va sifatiga ta'sirini aniqlash yo'nalishlarida olib borgan tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston dunyoning eng yirik pillachiligi rivojlangan davlatlaridan hisoblanib, bugungi kunda yerdan samarali foydalanishda mavjud va yangi tashkil etilayotgan ozuqa tutzorlardan yuqori barg hosil olish hamda sifatini oshirishga katta e'tibor berilmoqda. Hozirgi kunda "O'zbekipaksanoati" uyushmasining ma'lumotiga ko'ra, o'rma va intensiv tutzorlar 1,5 ming gektardan ziyodni tashkil etmoqda. Shundan, 2024-yilda 70 gektarga yaqin o'rma va intensiv tutzorlar tashkil etilgan. Darhaqiqat, baland tanali tutzorlarga ko'ra, intensiv shaklida ekilgan tutzorlar avvalroq ekspluatatsiyaga tushib, ularning bargidan foydalanish tezkor muddatda barg hosilini olishga erishiladi. Tutzorlardan ko'p va sifatli barg hosili olish uchun intensiv shaklda tashkil etilayotgan tutzorlarni eng samarali va turli mavsumlarga qurt boqishga mos kasalliklarga bardoshli bo'lgan sxemalarni tanlab barpo etish mamlakatimizda va jahon miqyosida dolzarb muammo sifatida qaralmoqda. Buning echimini topishda o'rma va intensiv sxemadagi tutzorlarni tashkil etish ishlarini yuqori darajada olib borish O'zbekiston davlati va hukumati tomonidan yaratilayotgan sharoitlarga ko'p jihatdan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi

¹ Inserco

Farmoning 30-maqsadida Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga etkazish va agrar sohada ilm-fan va amaliyot integratsiyasini chuqurlashtirish belgilab berilgan². Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-martdagi PQ-3616-son "Pillachilik tarmog'ini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"³gi, 2018-yil 12-yanvardagi PQ-3472-son "Respublikada ipakchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"⁴gi, 2020-yil 17-yanvar-dagi PQ-4567-son "Pillachilik tarmog'ida ipak qurti ozuqa bazasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"⁵gi Qarorlari hamda 2023-yil 1-iyundagi PF-85-son "Pillachilik sohasida kasanachilikni qo'llab-quvvatlash hamda pilla yetishtirish uchun ozuqa bazasini yanada kengaytirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"⁶gi Farmonida Respublikada pillachilikning ozuqa bazasini intensiv rivojlantirish, bir yilda 2-3 marta ipak qurtini boqish uchun to'yimli ravishda yangi plantatsiyalarni barpo etish, yangi tutzorlarini kengaytirish, navdor tut ko'chatlarini ko'paytirish, eski hosildan qolgan tutzorlarini yangilash, ipak qurtini parvarish qilish va pilla etishtirish jarayonlarini uzluksiz takomillashtirish hamda qishloq joylarda aholi bandligi va daromadlari darajasini oshirishni ta'minlaydigan kompleks rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Mazkur qarorlarda hamda sohaga tegishli boshqa me'yoriy-xuquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda va ipak qurti ozuqa bazasini hajmi va sifatini yaxshilashda ushbu dissertatsiya ishida bajarilgan tadqiqotlar muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekistonimizda mavsumiy ipak qurti duragaylarini parvarishlashda tumanlashtirilgan hamda istiqbolli tut navlaridan turli ekish sxemalari asosida intensiv tipdagi tutzorlarni tashkil qilishni tadqiq etish yo'nalishlarida O.Po'latov, M.Bigashyev O'.Qo'chqorov, D.I.Xolmatov, S.T.Valiyev va boshqalar tomonidan ilmiy jihatdan o'rganilgan va tahrir qilingan va asoslangan ma'lumotlar olingan.

Dunyo miqyosida xorijiy olimlaridan R.Kumar, K.U.Yilmaz, Zengin, S.Ercisli, M.N.Demirtas, Kuniaki Fukui. Takashi Kolma va Mitsuko Makino kabi olimlar tomonidan o'z iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan holda, keng miqyosda ilmiy-tadqiqotlar o'tkazilgan.

Ammo, respublikada yangi tutzorlarni intensiv usulda turli sxemalarda tashkil etish va ularning samaradorligi, kasalliklarga bardoshlilik bo'yicha hamda ushbu tutzorlarda yetishtirilgan barg bilan boqilgan duragay ipak qurtlariga va ularni pillalarining biologik va texnologik ko'rsatkichlariga ta'sirini aniqlash maqsadida ilmiy izlanishlar deyarli olib borilmagan.

Respublikamizda sifatli va texnologik xususiyatlari yuqori bo'lgan raqobatbardosh

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-martdagi PQ-3616-son "Pillachilik tarmog'ini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori

⁴ 2018-yil 12-yanvardagi PQ-3472-son "Respublikada ipakchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori

⁵ 17-yanvar-dagi PQ-4567-son "Pillachilik tarmog'ida ipak qurti ozuqa bazasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Qarori

⁶ 2023-yil 1-iyundagi PF-85-son "Pillachilik sohasida kasanachilikni qo'llab-quvvatlash hamda pilla etishtirish uchun ozuqa bazasini yanada kengaytirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni

pilla xom ashyosini yetishtirishda to'yimli barg va mo'l hosil beradigan tut nav va duragylaridan turli intensiv sxemalarda ozuqabop tutzorlarni tashkil etish va ushbu tutzorlarda yetishtirilgan barglar bilan mahalliy hamda horijdan keltirilgan ipak qurti duragaylarini boqish orqali afzalliklarini ilmiy asoslash bugungi kunda ishlab chiqarishdagi asosiy dolzarb masala hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotlarining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat agrar universiteti tadqiqot ishlari rejasi №TIAL-04 IV "Fermer xo'jaliklarida ipak qurti boqish va uning ozuqa bazasini mustahkamlash texnologiyalari" mavzusidagi loyiha tadqiqotlarning rejasi va dasturi doirasida 2019-2021-yillar davomida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tutning Jarariq 14, Marhamat 2017 navlari va O'zbekiston duragaylari asosida 1,4×0,5m, 1,2×0,22m va 0,9×0,9m sxemalardagi tutzorlarni ishlab chiqarishga mos ravishda tashkil etish bo'yicha usullar o'rganilib, optimal intensiv sxemalarning samaradorligi, kasalliklarga bardoshliligi, bargini oziqaviyligi, to'yimliligi, ipak qurtini rivojlanishiga, pilla hosili va sifatiga ta'sirini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

intensiv shaklda ekilgan 1,4×0,5 m, 1,2×0,22 m va 0,9×0,9 m sxemadagi tutzorlarni eng maqbul sxemalarini tanlash;

intensiv tutzorlarda yetishtirilgan barglar bilan parvarishlangan ipak qurtlari pillalarini biologik va texnologik hamda mahsuldorlik ko'rsatkichlarni aniqlash;

intensiv usulda 1,4×0,5 m, 1,2×0,22 m va 0,9×0,9 m sxemalarda ekilgan tutzorlardagi tut barglarida suvni saqlanish xususiyati va tut barglarining kimyoviy tarkibini aniqlash;

intensiv sxemalarda tashkil etilgan tutzorlardagi daraxtlardan olinadigan muhim xo'jalik ko'rsatkichlarini (barg sathi, barg bandi, barg og'irligi, barg hosilini) aniqlash va tutzorlarni eng maqbul sxemalarini tanlash, agrotexnik tadbirlarni vaqti va me'yorlari bo'yicha tavsiyanoma ishlab chiqish;

intensiv tutzorlarni iqtisodiy samaradorligini aniqlash bo'yicha to'yimli va ozuqabop tut bargidan olinadigan pillalarning sifat ko'rsatkichlarini ta'sirini ilmiy isbotlash.

Tadqiqotning ob'ekti tutning *Morus alba L* turiga mansub Jarariq 14, Marhamat 2017 navlari, O'zbekiston duragayi va 1,4×0,5 m, 1,2×0,22 m va 0,9×0,9 m sxemadagi tutzorlar, ipak qurtining *Bombyx mori Linn* turiga kiruvchi "Ipakchi 1 × Ipakchi 2" va "Jingsong × Haoyue" duragaylari olindi.

Tadqiqotning predmeti bo'lib, tutning tumanlashtirilgan yangi navlardan turli sxemalarda intensiv tutzorlar tashkil etish hamda barglarini morfologik va fiziologik ko'rsatkichlari, hosildorligi, ozuqabopligi, to'yimliligi bo'yicha ipak qurtini yashovchanligi va pillaning mahsuldorlik ko'rsatkichlarini aniqlash hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot tajribalarni olib borishda umum qabul qilingan tutchilik va ipakchilik yo'nalishi uchun agrotexnik qoidalardan, olingan natijalarni biologik va matematik-statistik tahlillarni o'tkazishda (Dospexov) hamda ozuqa beruvchi tutzorlarni tashkil etish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

ilk bor respublikamiz iqlim sharoitlariga mos 1,4×0,5 m, 1,2×0,22 m va 0,9×0,9 m sxemadagi tutzorlar tashkil etishning maqbul sxemalari ilmiy jihatdan asoslangan;

intensiv usuldagi 1,4×0,5 m, 1,2×0,22 m va 0,9×0,9 m sxemalarda tashkil etilgan tutzorlarning barg sathini nazoratga nisbatan 18,1-25,2 smga, barg og'irligini qiyoslovchiga

nisbatan 1,9 % ga va barg hosilini gektariga 227% oshirish mumkinligi isbotlangan;

tutning Jarariq 14, Marxamat 2017 navlari va O'zbekiston duragay ko'chatlaridan tashkil qilingan intensiv tutzorlarni yil davomida o'g'itlash, gektariga mahalliy o'g'it 40 tonna, azot 140 g/m², kaliy 40 g/m², fosfor 70 g/m², sug'orish 8-10 marta hamda qator oralariga ishlov berish tadbirlari 2 martani tashkil etishi optimal me'yor sifatida tavsiya etilgan;

1,4×0,5 m, 1,2×0,22 m va 0,9×0,9 m sxemali tutzorlarda yetishtirilgan ozuqa barglarida suv saqlash xususiyatini 7,2 % ga ortishi hamda protein miqdorini 25,08 % ga va uglevodlarni 8,93 % ga yetkazish mumkinligi aniqlangan;

yangi sxemalarda tashkil etilgan tutzorlar bargi bilan parvarishlangan duragay ipak qurtlarining pilla vaznini nazoratga nisbatan 2,3 % ga, ipakchanligini 1,4 % ga oshirish imkoniyatlari asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi:

Respublikamizning turli iqlim sharoitiga ega hududlari Andijon, Samarqand va Toshkent viloyatlarida tutning yangi nav va duragaylarini intensiv tutzorlar tashkil etish orqali sifatli barg hosili olish samaradorligi asoslangan;

Marhamat-2017, Jarariq-14 navlari va O'zbekiston duragay ko'chatlaridan uchta viloyatda intensiv tutzorlar tashkil etilib, ulardan yuqori barg hosili olingan. Shu bilan bir qatorda ularni barglaridan foydalangan holda yuqori navli pilla va yuqori hosil olishga erishilgan;

Respublikamizda intensiv sxemalarda tutzorlar tashkil etish va ularning parvarishlash agrotexnologiyasining joriy etilishi mamlakatimizda sifatli va ko'p hajmda barg hamda pilla yetishtirish samaradorligi imkoniyatini yaratadi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotlar innovatsion, zamonaviy yangi uslub va ilg'or texnologiyalar asosida laboratoriya hamda ishlab chiqarish sharoitlarida joriy etish asosida tutzorlar va pilla yetishtirish bo'yicha umumqabul qilingan uslub va agrotexnik qoidalarga tayangan holda bajarilganligi, tadqiqot natijalari hamda birlamchi hujjatlar Ipakchilik ilmiy-tadqiqot instituti va Toshkent davlat agrar universiteti shuningdek, tegishli vazirliklarning aprobatasiya komissiyalari tomonidan ijobiy baholangan. Olingan raqamli ma'lumotlar biometrik, statistik va farqning ishonchliligi kabi ko'rsatkichlar aniqlanganlik darajasi tahlillaridan o'tkazilganligi, ilmiy natijalarni nufuzli ilmiy nashrlarda chop etilganligi, dissertatsiya ilmiy natijalari ilmiy-amaliy davlat loyihalari doirasida olinganligi, tadqiqot ishining natijalari vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan e'tirof etilganligi va amaliy natijalarning ishlab chiqarishda joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati: Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tutning Jarariq 14 va Marhamat 2017 navlari hamda O'zbekiston duragaylarini ko'chatlari asosida 1,4×0,5 m, 1,2×0,22 m, 0,9×0,9 m sxemalarda intensiv shaklda turli sxemadagi tutzorlarda etishtirilgan barglar hosildorligini yuqoriligi hamda barcha mavsumlarda ipak qurt boqish uchun bargidan foydalanish samaradorligini ishlab chiqish bilan izohlanadi.

Tutning serhosil, to'yimlilik yuqori bo'lgan nav va duragaylaridan eng maqbul sxemalar asosida bahor, yoz va kuzgi qurt boqish mavsumlari uchun intensiv tutzorlarni ko'paytirib, ozuqa bazasini mustahkamlash hamda sifatini yaxshilash ilmiy asoslangan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Intensiv tutzorlarni tashkil etishning turli optimal sxemalarini barg hosildorligiga va ipak qurti mahsuldorligiga ta'sirini ilmiy

asoslash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida:

Yangi ko'p hosil olish mumkin bo'lgan tutning intensiv 1,2×0,22 m sxemada ekilgan tutzor Samarqand viloyatining Samarqand tumanidagi "Shaxnoza, Komila, Azizjon" fermer xo'jaligida joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Ipakchilik va jun sanaotini rivojlantirish qo'mitasining 2024-yil 26-oktabrdagi № 3-669-son ma'lumotnomasi). Natijada, 0,20 gektar tutzordan olingan barg hisobiga Ipakchi 1×Ipakchi 2 duragayining 6 qutisidan olingan iqtisodiy samaradorlik 7973,7 ming so'm tashkil etib, sof foyda esa 7575,0 ming so'mni, bir so'm xarajatga 1,05 so'mdan daromad olingan, rentabellik 29,6 % teng bo'lgan;

1 gektar maydondan olinadigan barg hosili va moddiy manfaatdorlikni oshirish maqsadida tutning yangi ishlab chiqilgan intensiv shakldagi 1,4×0,5 m sxemasi Andijon viloyati Marhamat tumanidagi "Ipak Ko'chat Klaster" fermer xo'jaligida joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Ipakchilik va jun sanaotini rivojlantirish qo'mitasining 2024-yil 26-oktabrdagi № 3-669-son ma'lumotnomasi). Natijada, 0,40 gektardan olingan 13714 kg barg hosildan iqtisodiy samaradorlik 2614,2 ming so'm, sof foyda esa 2483,5 ming so'mni, bir so'm xarajatga 1,06 so'mdan daromad olindi hamda rentabellik 36,2 % tashkil etgan.

Tutning yangi intensiv 1,4×0,5 m sxemalarda ekilgan tutzor Toshkent davlat agrar universiteti o'quv-ilmiy tajriba bo'limining jami 0,10 gektar maydonda joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Ipakchilik va jun sanaotini rivojlantirish qo'mitasining 2024-yil 26-oktabrdagi № 3-669-son ma'lumotnomasi). Natijada, yangi sxemadan mavjud standart 4×0,5 m sxemaga nisbatan 1150 kg ko'p barg hosili etishtirishga erishilgan va 0,10 gektardan olingan iqtisodiy samaradorlik 460,0 ming so'm, sof foyda esa 437,0 ming so'mni va bir so'm xarajatga 1,31 so'mdan daromad olingan hamda rentabellik 53,9 % ni tashkil etgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya tadqiqotlari ToshDAUning maxsus komissiyasi tomonidan har yili aprobatsiyadan o'tkazilib, hamda tadqiqot natijalari respublika va Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda ijobiy baholangan. Jumladan 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan 1 ta tavsiyanoma va O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarini ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola shundan 1 tasi xorijiy, 3 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan, shuningdek, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya ishi kirish, beshta bob, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 118 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida bajarilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati ilmiy jihatdan asoslangan, uning maqsadi, vazifalari, ob'ekti hamda predmeti tavsiflangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, dissertatsiya bajarilgan muassasaning ilmiy-tadqiqot rejaları bilan bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari va ularning ishonchliligi, ilmiy-amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi,


aprobatsiyasi, e'lon qilinishi hamda dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi to'g'risida ma'lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Intensiv tutzorlar tashkil etishning ipakchilikdagi ahamiyati”** deb nomlangan I-bobida tadqiqot mavzusi bo'yicha xorij va respublika olimlarining ushbu mavzuda olib borgan ilmiy tadqiqotlari va adabiy manbalari sharhlangan. Jumladan, intensiv tutzorlardan yuqori hosil etishtirish asoslari, tut ipak qurtining yasovchanligi va mahsuldorligiga turli sxemadagi tutzorlar bargaining ta'siri hamda intensiv tutzorlarda takroriy qurt boqishda tut navlari va duragaylarining ahamiyati bo'yicha adabiyotlar ma'lumotlari tavsiflangan.

Dissertatsiya ishining **“Tadqiqotni o'tkazish sharoiti, dasturi va uslublari”** deb nomlangan II-bobida tadqiqot mavzusi yuzasidan tadqiqot o'tkazish joyining tabiiy-iqlim sharoitlari, intensiv tutzorlarda parvarishlanayotgan tut daraxtlarini xo'jalik belgilari va kasallanish darajasini aniqlash uslubiyoti, turli sxemada ekilgan intensiv tutzorlarda yetishtirilgan barglarni sathi, barg og'irligi va barg hosildorligini aniqlash uslubiyoti, intensiv tutzorlar barglarini kimyoviy tarkibini aniqlash uslubiyoti, turli sxemada ekilgan tutzorlarning barglarida suv saqlash xususiyatini aniqlash uslubiyoti hamda yangi 1,4×0,5 m, 1,2×0,22 m va 0,9×0,9 m sxemalarda intensiv tutzorlar bargini ipak qurtining hayotchanlik, pilla hosildorligi va texnologik ko'rsatkichlariga ta'sirini aniqlash uslubiyoti bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Turli xil sxemalarda ekilgan tutzorlardan olinadigan barg hosili, suv saqlash va biologik xususiyatlarini baholash”** nomli III-bobining **“Intensiv tutzorlarini tashkil etishda tabiiy muhit omillarining ta'siri”** nomi paragrafida 1,4×0,5 m, 1,2×0,22 m, 0,9×0,9 m va 4,0×0,5 m sxemalarda tutzorlarni tashkil etishga yo'naltirilgan tajribalar 2020-2022-yillarda Ipakchilik ilmiy-tadqiqot instituti, Toshkent davlat agrar universiteti o'quv-ilmiy tajriba bo'limi tajriba maydonining 0,20 ga, Samarqand tumanining “Shaxnoza, Komila, Azizjon” fermer xo'jaligini 0,40 ga va Marxamat tumanidagi “Ipak Ko'chat Klaster” fermer xo'jaligini 0,60 gektar maydonlarida havo harorati, namlik, yorug'lik miqdori va mineral o'g'itlar bilan parvarishlash me'yorlarini tadqiq etildi.

2020-2022-yillarda mart oyida, ya'ni tut shoxlarida kurtakni eng faol tarzda bo'rtish davrida havoning o'rtacha harorati ikkala hududda ham +14 +22°C atrofida bo'ldi. Havoning nisbiy namligi ham o'rtacha har ikkala hududda 59-63 % teng bo'ldi. Ma'lumki, aprel oyida tut tanasida suv yurib shoxlaridagi kurtaklardan barg hosil bo'lishi, ya'ni listogenez fazasi juda jadal kechadigan davr hisoblanadi. Ana shu vaqtda havo harorati uch yillik ko'rsatkichlar bo'yicha har ikkala hududda ham +21-23°C tashkil etdi. Namlik ham bir-biriga mutanosib 54-57 % bo'lib, tut barglarini rivojlanishiga juda maqbul sharoit bo'ldi. May oyining gigrotermik sharoitlariga 2020-2022-yillarda harorat keskin ko'tarilish kuzatilmadi, o'rtacha +30°C gacha ko'tarilganini ko'rishimiz mumkin. Bunday ko'tarilish O'zbekiston ob-havo iqlimiga xos bo'lib, ba'zi yillarda bu harorat +35°C gacha ham etadi. Shu yillari may oyida havo sekin asta quruqlashib borib, o'rtacha 45-50 % tashkil etdi. Tajriba olib borgan uchinchi joyda ya'ni Andijon viloyatining Marxamat tumanida harorat va namlik yuqoridagi hududlarga nisbatan harorat bir oz past bo'ldi. Namlik esa, ancha yuqori bo'lib, bahorda 55-70 %, yozda esa 30-40 % ga teng bo'lganligi kuzatildi. Buning sababi ushb hududning iqlim sharoiti namgarchilik yuqori bo'ladigan maskan hisoblanadi. Bu esa tut daraxtlari uchun juda qulay muhit hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm. Bahor va yoz oylarida namlik va harorat ko'rsatkichlari

“Turli xil sxemalarda ekilgan intensiv usulda tutzorlarining tut barglarda suv saqlanish xususiyati” nomli paragrafida tajribada o'rganilayotgan 1,4×0,5 m, 1,2×0,22 m va 0,9×0,9 m sxemadagi intensiv va 4,0×0,5 m qiyoslovchi tutzorlardan bahor va kuz fasllarida barg namunalari bir xil ertalab soat 10⁰⁰ gacha olindi, so'ngra har ikki soatda tarozida o'lchanib, suv yo'qotish miqdori aniqlanib borildi. Tutzorlardan keltirilgan barglardan suvning bug'lanish miqdorini bahor mavsumida soat 10⁰⁰-12⁰⁰ oralig'ida aniqlaganimizda 7,6 g dan 12,3 g cha harorat ko'tarila borishi bilan barglardan suvning kamayishi ko'payib, soat 14⁰⁰ da 17,0 g dan 21,4 g gacha, soat 16⁰⁰ da 22,5 g dan 26,7 g gacha, soat 18⁰⁰ da 27,9 g dan 34,1 g gacha va nihoyat soat 20⁰⁰ ga kelib, 24,7 g dan 30,6 g gacha etdi

Shuningdek, tutzorlarda kuz mavsumida barglardan suvning bug'lanish miqdoriga nazar qaratsak, kuzning eng issiq birinchi oyi bo'lgan sentyabrda jazirama issiq kunlarida barglardan suvning kamayishi ancha tez va jadal bo'lishi aniqlandi. Bunda ertalabki soat 10⁰⁰ dan 12⁰⁰ gacha bo'lgan vaqt ichida bug'langan suv hajmi 7,9 g dan 11,2 g gacha, soat 14⁰⁰ da 17,1 g dan 20,1 g gacha, soat 16⁰⁰ da 22,9 g dan 26,7 g gacha, soat 18⁰⁰ da 28,4 g dan 33,4 g gacha va soat 20⁰⁰ da 30,8 g dan 37,1 g gacha bo'lishi kuzatildi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdagi barg tarkibidagi barcha kimyoviy moddalar ipak qurtining o'sib-rivojlanishi uchun juda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, turli sxemalarda ekilgan tutzorlardan olingan tut barglarini tarkibidagi suv miqdori va ularning bug'lanish darajalari turlicha bo'lishi kuzatildi. Bu shundan dalolat beradki, tut ko'chatlarini ekishda ular orasidan havo almashinish me'yorlariga ham amal qilish muhim ahamiyatga ega hisoblandi.

Bahor va kuzda intensiv tutzorlardan 100 gr li barg namunalaridagi barglarning soni, vazni va suv miqdori aniqlanganda qiyoslovchi 4×0,5 m sxemasida 100 gr barglar soni bahorda – 30 dona va kuzda – 32 dona, bir dona bargning o'rtacha vazni bahorda – 3,33 g va kuzda – 3,12 g, shuningdek, barg tarkibidagi suv miqdori bahorda – 75,2 % va kuzda – 72,1 % namoyon qilgan bo'lsa, 1,4×0,5 m sxemasida 100 gr barglar soni bahorda – 28 dona va kuzda – 30 dona, bir dona bargning o'rtacha vazni bahorda – 3,57 g va kuzda – 3,33 g hamda barg tarkibidagi suv miqdori bahorda – 75,2 % va kuzda – 72,1 % bo'lganligi aniqlandi. Tutzorlarni 0,9×0,9 m sxemasida 100 gr barglar soni bahorda – 32 dona va kuzda – 36 dona, bir dona bargning o'rtacha vazni bahorda – 3,12 g va kuzda – 2,77 g hamda barg tarkibidagi suv miqdori bahorda – 68,3 % va kuzda – 66,7 % tashkil qildi.

“Intensiv tutzorlardagi daraxtlarda uchragan kasallik va zararkunandalar”

nomli paragafida tutzorlarda uchragan tutning yuqumli va yuqumsiz kasalliklar ilmiy yondoshuvlar asosida o‘rganildi. Buning uchun tanlab olingan uchta hududdagi bir xil ya’ni, 1,4×0,5 m, 1,2×0,22 m va 0,9×0,9 m sxemadagi tutzorlardan namunalar olib tekshirildi. Bunda, 2020-2022-yillar bo‘yicha o‘rtacha bahor va kuzda intensiv tutzorlardagi daraxtlar bargini bakterioz bilan kasallanishi Samarqand tumanida qiyoslovchi 4,0×0,5 m sxemada (mos ravishda) – 6,0 va 22,3 %, 1,4×0,5 m sxemada – 6,3 va 18,0 %, 1,2×0,22 m sxemada – 14,7 va 34,1 % hamda 0,9×0,9 m sxemada – 19,2 va 43,8 % bo‘lga bo‘lsa, Toshkent davlat agrar universiteti o‘quv-ilmiy tajriba bo‘limida qiyosiy 4,0×0,5 m sxemada – 2,2 va 1,4 %, 1,4×0,5 m sxemada – 4,0 va 0,0 % va 0,9×0,9 m sxemada – 3,0 va 3,3 %, shuningdek, Marxamat tumanida qiyosiy 4,0×0,5 m sxemada – 6,1 va 0,0 %, 1,4×0,5 m sxemada – 10,5 va 1,0 %, 1,2×0,22 m sxemada – 12,1 va 2,0 % hamda 0,9×0,9 m sxemada – 15,0 va 3,0 % bo‘lganligi aniqlandi.

Bahor va kuzda intensiv tutzorlardagi daraxtlar bargini unshudring bilan kasallanishi Samarqand tumanida qiyoslovchi 4,0×0,5 m sxemada (mos ravishda) – 6,0 va 22,3 %, 1,4×0,5 m sxemada – 6,3 va 18,0 %, 1,2×0,22 m sxemada – 14,7 va 34,1 % hamda 0,9×0,9 m sxemada – 19,2 va 43,8 % bo‘lga bo‘lsa, Toshkent davlat agrar universiteti o‘quv-ilmiy tajriba bo‘limida qiyosiy 4,0×0,5 m sxemada 10,2 va 33,4 %, 1,4×0,5 m sxemada – 7,1 va 13,5 % hamda 0,9×0,9 m sxemada – 8,6 va 19,3 %, shuningdek, Marxamat tumanida qiyosiy 4,0×0,5 m sxemada 6,0 va 19,0 %, 1,4×0,5 m sxemada – 13,5 va 25,9 %, 1,2×0,22 m sxemada – 16,0 va 35,6 % hamda 0,9×0,9 m sxemada – 19,2 va 35,0 % namoyon qildi.

Bahor va kuzda Samarqand tumani va Toshkent davlat agrar universiteti o‘quv-ilmiy tajriba bo‘limidagi intensiv tutzorlardagi daraxtlar bargini bujmayishi kasalligi bilan zararlanishi umuman aniqlanmadi. Biroq, Marxamat tumanida bahorda qiyosiy 4,0×0,5 m sxemada – 11,9 %, 1,4×0,5 m sxemada – 24,7 %, 1,2×0,22 m sxemada – 30,2 % va 0,9×0,9 m sxemada – 31,2 % bo‘lgan bo‘lsa, kuz faslida bargini bujmayishi kasalligi bilan zararlanishi umuman aniqlanmadi.

Bahor va kuzda intensiv tutzorlardagi daraxtlar bargini tut parvonasi zararkunadasini bilan zararlashi Samarqand tumanida qiyoslovchi 4,0×0,5 m sxemada (mos ravishda) – 2,8 va 16,1 %, 1,4×0,5 m sxemada – 4,0 va 12,4 %, 1,2×0,22 m sxemada – 4,2 va 14,8 % hamda 0,9×0,9 m sxemada – 3,5 va 15,0 % bo‘lga bo‘lsa, Toshkent davlat agrar universiteti o‘quv-ilmiy tajriba bo‘limida qiyosiy 4,0×0,5 m sxemada 2,8 va 16,1 %, 1,4×0,5 m sxemada – 4,0 va 12,4 % hamda 0,9×0,9 m sxemada – 3,5 va 15,0 %, shuningdek, Marxamat tumanida qiyosiy 4,0×0,5 m sxemada – 15,2 va 60,4 %, 1,4×0,5 m sxemada – 15,5 va 58,8 %, 1,2×0,22 m sxemada – 16,0 va 35,6 % hamda 0,9×0,9 m sxemada 3,5 va 15,0 % bo‘lganligi aniqlandi.


Dissertatsiyaning **“Yangi intensiv sxemalarda ekilgan tutzorlarda etishtirilgan barglarni mahsuldorlik va ozuqabopligini baholash”** nomli IV-bobining **“Intensiv tutzorlar barglarining kimyoviy tarkibi”** nomli paragafida 1,4×0,5 m, 1,2×0,22 m va 0,9×0,9 m va 4,0×0,5 m sxemalarda ekilgan tutzorlarni bahorgi barglarni kimyoviy tarkibi 2023-yilda Qibray tumanidagi intensiv tutzorlarda qiyosiy 4,0×0,5 m sxemada umumiy namlik – 74,6 %, namlik – 11,08 %, azot miqdori – 3,13 %, oqsillar miqdori – 18,29 %, kullar – 8,05 %, poliprenollar miqdori – 0,076 %, β-sitosterin – 0,311 %, vitamin E – 0,006 % va EMY – 11,59 % bo‘lgan bo‘lsa, 1,4×0,5 m sxemada (mos ravishda) – 76,4; 10,33; 4,12; 25,08; 8,93; 0,046; 0,031; 0,006 va 10,15 % hamda

0,9×0,9 m sxemada – 74,7; 10,96; 2,93; 17,44; 6,10; 0,085; 0,315; 0,009 va 12,38 % bo‘lganligi aniqlandi.

Marxamat tumanidagi tutzorlarda 2024-yilda yetishtirilgan barglarda qiyosiy 4,0×0,5 m sxemada umumiy namlik – 76,3 %, namlik – 11,18 %, azot miqdori – 3,90 %, oqsillar miqdori – 18,13 %, kullar – 7,99 %, poliprenollar miqdori – 0,075 %, β-sitosterin – 0,300 %, vitamin E – 0,008 % va EMY – 11,56 % bo‘lgan bo‘lsa, 1,4×0,5 m sxemada (mos ravishda) – 77,4; 10,32; 4,0; 25,06; 8,94; 0,076; 0,290; 0,007 va 10,46 %, 1,2×0,22 m sxemada – 76,0; 11,43; 3,67; 22,98; 10,11; 0,053; 0,292; 0,006 va 9,80 % hamda 0,9×0,9 m sxemada – 77,4; 11,66; 3,79; 17,44; 6,10; 0,085; 0,315; 0,009 va 12,38 % namoyon qildi.

“Turli sxemalarda tashkil etilgan intensiv tutzorlar mahsuldorlik xo‘jalik ko‘rsatkichlari” nomli paragafida 2020-2022-yillar bo‘yicha o‘rtacha Toshkent davlat agrar universiteti o‘quv-ilmiy tajriba bo‘limidagi tutning “O‘zbekiston” duragayida qiyosiy 4×0,5 m sxemada barg uzunligi – 23,4 sm, eni – 17,7 sm va bandi – 6,0 sm bo‘lib, 1,4×0,5 m sxemada (mos ravishda) – 19,8; 17,4 va 5,2 sm hamda 0,9×0,9 m sxemada – 17,1; 13,6 va 5,1 sm namoyon qildi. Qiyosiy 4×0,5 m sxemada barg bandi bilan ogirliqi – 6,5 g, bandini ogirliqi – 1,0 g va bargni ogirliqi – 5,5 g bo‘lgan bo‘lsa, 1,4×0,5 m sxemada (mos ravishda) – 6,4; 0,9 va 5,4 g va 0,9×0,9 m sxemada – 4,4; 0,6 va 3,8 g tashkil qildi.

Samarqand tumani “Shaxnoza, Komila, Azizjon” fermer xo‘jaligidagi tutning “O‘zbekiston” duragayida qiyosiy 4×0,5 m sxemada barg uzunligi – 23,9 sm, eni – 17,9 sm va bandi – 5,9 sm bo‘lib, 1,4×0,5 m sxemada (mos ravishda) – 23,8; 18,2 va 5,8 sm, 1,2×0,22 m sxemada – 19,7; 17,6 va 5,2 sm va 0,9×0,9 m sxemada – 17,0; 14,0 va 4,9 sm namoyon qildi. Qiyosiy 4×0,5 m sxemada barg bandi bilan ogirliqi – 7,3 g, bandini ogirliqi – 1,1 g va bargni ogirliqi – 6,2 g bo‘lgan bo‘lsa, 1,4×0,5 m sxemada (mos ravishda) – 6,4; 0,9 va 5,5 g, 1,2×0,22 m sxemada – 6,1; 0,9 va 5,2 g va 0,9×0,9 m sxemada – 4,7; 0,6 va 4,1 g tashkil qildi (2-rasm).



2-rasm. Intensiv tutzorlarda bahor faslida barg sathi va og'irligi $\bar{X} \pm S \bar{x}$ (2020-2022 yy.)

Marxamat tumanining “Ipak Ko‘chat Klaster” fermer xo‘jaligida qiyosiy 4×0,5 m sxemada barg uzunligi – 23,9 sm, eni – 17,8 sm va bandi – 5,4 sm bo‘lib, 1,4×0,5 m sxemada (mos ravishda) – 24,3; 18,0 va 5,9 sm, 1,2×0,22 m sxemada – 19,4; 17,4 va 5,0 sm va 0,9×0,9 m sxemada – 17,0; 14,0 va 4,6 sm namoyon qildi. Qiyosiy 4×0,5 m sxemada barg bandi bilan ogirliqi – 5,9 g, bandini ogirliqi – 0,8 g va bargni ogirliqi – 5,1 g bo‘lgan

bo'lsa, 1,4×0,5 m sxemada (mos ravishda) – 6,1; 0,9 va 5,2 g, 1,2×0,22 m sxemada – 6,1; 0,8 va 5,2 g va 0,9×0,9 m sxemada – 4,3; 0,5 va 3,8 g tashkil qildi.

“Intensiv tuzorlardagi daraxtlarni novdasining soni va ularning uzunligi” nomli paragrafida 2020-2022-yillar bo'yicha o'rtacha Toshkent davlat agrar universiteti o'quv-ilmiiy tajriba bo'limida qiyosiy 4×0,5 m sxemada bir tupdagi novdalar soni – 8,2 dona, o'sib chiqqan novdaning uzunligi – 139,0 sm, barcha novdalarni uzunligi – 1135,1 sm hamda sovuqdan zararlanish novda uzunligi – 6,2 sm yoki 4,4 % bo'lib, 1,4×0,5 m sxemada (mos ravishda) – 5,6 dona; 150,2 sm; 845,3 sm; 4,9 sm yoki 3,2 % va 0,9×0,9 m sxemada – 5,3 dona; 146,3 sm, 788,06 sm, 7,4 sm yoki 5,0 % namoyon qildi.

Andijon viloyati Marxamat tumanida qiyosiy 4×0,5 m sxemada bir tupdagi novdalar soni – 7,8 dona, o'sib chiqqan novdaning uzunligi – 130,0 sm, barcha novdalarni uzunligi – 1017,8 sm hamda sovuqdan zararlanish novda uzunligi – 13,8 sm yoki 10,6 % bo'lib, 1,4×0,5 m sxemada (mos ravishda) – 6,8 dona; 150,0 sm; 866,0 sm; 15,3 sm yoki 10,2 %, 1,2×0,22 m sxemada – 5,7 dona, 150,0 sm, 918,0 sm, 16,3 sm yoki 10,6 % va 0,9×0,9 m sxemada – 5,7 dona; 146,7 sm, 721,5 sm, 15,9 sm yoki 10,9 % tashkil qildi.

1-jadval

Intensiv tuzorlardagi daraxtlarning novdasi ko'rsatkichlari (2020-2022 yy)

Ekish sxemasi	Bir tupdagi novdalar soni, dona	O'sib chiqqan novdaning uzunligi, sm	Barcha novdalarni uzunligi, sm	Novdani sovuqdan zararlanish darajasi	
				uzunligi, sm	%
Toshkent davlat agrar universiteti o'quv-ilmiiy tajriba bo'limi (tutning O'zbekiston duragayi)					
1,4×0,5 m	5,6±0,46	150,2±5,26	845,3±96,75	4,9±0,4	3,2±0,15
0,9×0,9 m	5,3±0,33	146,3±4,80	788,06±70,5	7,4±0,5	5,0±0,17
4×0,5 m (qiyosiy)	8,2±0,44	139,0±1,19	1135,1±55,9	6,2±0,3	4,4±0,23
Andijon viloyati Marxamat tumani (tutning Marxamat 2017 navi)					
1,4×0,5 m	6,8±0,42	150,0±4,12	866,0±80,0	15,3±0,62	10,2±0,35
1,2×0,22 m	5,7±0,35	150,0±3,78	918,0±37,3	16,3±1,53	10,6±1,01
0,9×0,9 m	5,7±0,35	146,7±3,42	721,5±76,0	15,9±0,82	10,9±0,45
4×0,5 m (qiyosiy)	7,8±0,73	130,0±0,93	1017,8±92,7	13,8±0,74	10,6±0,52
Samarqand viloyati Samarqand tumani (tutning Jararik 14 navi)					
1,4×0,5 m	7,3±0,35	156,9±2,22	1118,0±20,6	6,7±0,9	4,2±0,55
1,2×0,22 m	5,8±0,34	148,9±3,49	875,9±67,78	8,3±0,4	5,6±0,23
0,9×0,9 m	4,4±0,73	144,1±3,15	632,8±117,13	9,2±0,3	6,3±0,09
4×0,5 m (qiyosiy)	9,6±0,19	146,6±4,24	1410,3±16,6	5,3±0,5	3,6±0,4

Samarqand viloyati Samarqand tumanida qiyosiy 4×0,5 m sxemada bir tupdagi novdalar soni – 9,6 dona, o'sib chiqqan novdaning uzunligi – 146,6 sm, barcha novdalarni uzunligi – 1410,3 sm hamda sovuqdan zararlanish novda uzunligi – 5,3 sm yoki 3,6 % bo'lib, 1,4×0,5 m sxemada (mos ravishda) – 7,3 dona; 156,9 sm; 1118,0 sm; 6,7 sm yoki 4,2 %, 1,2×0,22 m sxemada – 5,8 dona, 148,9 sm, 875,9 sm, 8,3 sm yoki 5,6 % va 0,9×0,9 m sxemada – 4,4 dona; 144,1 sm, 632,8 sm, 9,2 sm yoki 6,3 % namoyon qildi (1- jadval).

“Intensiv sxemadagi tuzorlarning barg hosildorligi” nomli paragrafida Toshkent viloyati ToshDAU o'quv-ilmiiy tajriba bo'limida 2020-2022-yillar bo'yicha o'rtacha intensiv tuzorlarni bahorgi barg hosili tahlil qilganda 1,4×0,5 m sxemasida bir tupdan – 2,1 kg hamda maydon birligidan esa – 300,0 s/ga barg hosili olinib, qiyoslovchi 4,0×0,5 m sxemaga nisbatan – 94,5 % yuqori bo'lganligi ma'lum bo'ldi. Shuningdek, 0,9×0,9 m sxemada bir tupdan – 1,5 kg hamda maydon birligidan esa – 185,18 s/ga barg hosili

shakllanganligi aniqlandi. Bu esa, qiyoslovchi 4,0×0,5 m sxemaga nisbatan – 20,1 % yuqori bo‘lganligi aniqlandi. Qiyoslovchi 4,0×0,5 m sxemasida bir tupdan – 3,1 kg hamda maydon birligidan – 155,0 s/ga barg hosilini olinganligi ma’lum bo‘ldi.

Samarqand tumanida intensiv tutzorlarni bahorgi barg hosili tahlil qilganda 1,4×0,5 m sxemasida bir tupdan – 2,3 kg hamda maydon birligidan esa – 333,33 s/ga barg hosili olinib, qiyoslovchi 4,0×0,5 m sxemaga nisbatan – 91,0 % yuqori bo‘lganligi ma’lum bo‘ldi. 1,2×0,22 m sxemada bir tupdan – 0,764 kg hamda maydon birligidan esa – 289,50 s/ga barg hosili shakllanib, qiyoslovchi 4,0×0,5 m sxemaga nisbatan – 76,0 % yuqori bo‘lganligi aniqlandi. Shuningdek, 0,9×0,9 m sxemada bir tupdan – 1,7 kg hamda maydon birligidan esa – 209,88 s/ga barg hosili shakllanganligi aniqlandi. Bu esa, qiyoslovchi 4,0×0,5 m sxemaga nisbatan – 27,8 % yuqori bo‘lganligi aniqlandi. Qiyoslovchi 4,0×0,5 m sxemasida bir tupdan – 3,3 kg hamda maydon birligidan – 165,0 s/ga barg hosilini olinganligi aniqlandi.

2-jadval


Intensiv tutzorlarni bahorgi barg hosildorligi

Ekish sxemasi	Barg hosildorligi								
	Bir tupdan, kg				Maydon birligidan, s/ga				
	2020 yil	2021 yil	2022 yil	o‘rtacha	2020 yil	2021 yil	2022 yil	o‘rtacha	qiyosiyga nisbatan, %
Toshkent viloyati ToshDAU o‘quv-ilmiy tajriba bo‘limida									
1,4×0,5 m	2,3±0,85	1,9±1,17	2,1±0,91	2,1±0,12	328,57	271,43	300,0	300,0	194,5
0,9×0,9 m	1,5±0,49	1,4±0,83	1,6±0,57	1,5±0,06	185,19	172,84	197,53	185,18	120,1
4,0×0,5 m (qiyosiy)	2,9±0,35	3,3±0,45	3,1±0,32	3,1±0,12	145,0	165,0	155,0	155,0	100,0
Samarqand viloyati Samarqand tumanida									
1,4×0,5 m	2,4±0,35	2,2±0,27	2,4±0,43	2,3±0,07	342,86	314,29	342,86	333,33	203,4
1,2×0,22 m	0,78±0,44	0,81±0,81	0,69±0,33	0,76±0,03	295,44	308,70	264,38	289,50	176,0
0,9×0,9 m	1,6±0,46	1,7±0,75	1,8±0,53	1,7±0,06	197,53	209,88	222,22	209,88	127,8
4,0×0,5 m (qiyosiy)	3,1±0,55	3,6±0,64	3,2±0,37	3,3±0,15	155,0	180,0	160,0	165,0	100,0
Andijon viloyati Marxamat tumani									
1,4×0,5 m	2,1±0,30	2,6±0,37	2,5±0,46	2,4±0,15	300,0	371,43	357,15	342,86	194,0
1,2×0,22 m	0,75±0,54	0,83±0,83	0,81±0,36	0,80±0,02	285,22	316,28	308,32	303,02	171,8
0,9×0,9 m	1,5±0,44	1,8±0,51	1,9±0,53	1,7±0,12	185,19	222,22	234,57	209,88	121,0
4,0×0,5 m (qiyosiy)	3,4±0,56	3,6±0,54	3,6±0,37	3,5±0,07	170,0	180,0	180,0	175,0	100,0

Marxamat tumanida intensiv tutzorlarni bahorgi barg hosili tahlil qilganda 1,4×0,5 m sxemasida bir tupdan – 2,0 kg hamda maydon birligidan esa – 342,86 s/ga barg hosili olinib, qiyoslovchi 4,0×0,5 m sxemaga nisbatan – 94,0 % yuqori bo‘lganligi ma’lum bo‘ldi. 1,2×0,22 m sxemasida bir tupdan – 0,8 kg hamda maydon birligidan esa – 303,02 s/ga barg hosili shakllanib, qiyoslovchi 4,0×0,5 m sxemaga nisbatan – 71,0 % yuqori bo‘lganligi aniqlandi. Shuningdek, 0,9×0,9 m sxemada bir tupdan – 1,7 kg hamda maydon birligidan esa – 209,88 s/ga barg hosili shakllanganligi aniqlandi. Bu esa, qiyoslovchi 4,0×0,5 m sxemaga nisbatan – 21,0 % yuqori bo‘lganligi aniqlandi. Qiyoslovchi 4,0×0,5 m sxemasida bir tupdan – 3,5 kg hamda maydon birligidan – 175,0 s/ga barg hosilini olinganligi aniqlandi (2-jadval).

Dissertatsiyaning “**Intensiv tutzorlarda etishtirilgan barglarni ipak qurtlarining pilla mahsuldorligi va texnologik ko‘rsatkichlariga ta’siri**” nomli

